

HUVAYDO G'AZALLARIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Xomidova Zeboxon G'ayratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Zeboxomidova230@gmail.com**Annotatsiya**

Xojanazar Huvaydo Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyandasasi va sohibdevon shoirdir. Uning lirik merosi devon holida nashr qilingan. Bu maqolada shoirning "Kuyub ishq o'tida, ey do'stlar, bag'ri kabob o'ttum" deb boshlanuvchi g'azali tahlilga tortilgan. Unda ijodkorning g'oyaviy yo'nalishi, badiiy mahorati, ilohiy ishq tasvirining o'ziga xosligi tahlil qilingan. G'azal tahlilida tashbeh, tajnis, mubolag'a, nido, tazod san'atlarining mohirona qo'llanganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, devon, Huvaydo, g'azal, tashbeh, tajnis, mubolag'a, nido, tazod, mustazod, musaddas, muxammas, tasavvuf.

Аннотация

Ходжаназар Хувайдо – зрелый представитель коканской литературной среды и мастер-поэт. Его лирическое наследие было опубликовано как деван. В данной статье анализируется газель поэта, которая начинается словами «Куюб ишк отда, эй друзья, багри кабаб оттум». В ней анализируются идеиное направление творца, художественное мастерство, уникальность образа божественной любви. При анализе газелей умело используется искусство ташбе, таджниса, преувеличения, восклицания, тазада.

Ключевые слова: литературная среда, деван, Хувайдо, газель, аллюзия, таджнис, преувеличение, восклицание, тазад, мустазад, мусадды, муhammas, мистика.

Abstract

Khojanazar Huvaido is a mature representative of the Kokan literary environment and a master poet. His lyrical legacy was published as a devan. In this article, the poet's ghazal, which begins with the words "Kuyub ishq otta, ey friends, bagri kabab ottum" is analyzed. In it, the creator's ideological direction, artistic skills,

and the uniqueness of the image of divine love are analyzed. In the analysis of ghazals, the art of tashbeh, tajnis, exaggeration, exclamation, tazad is used skillfully.

Key words: literary environment, devan, Huwaydo, ghazal, allusion, tajnis, exaggeration, exclamation, tazad, mustazad, musaddas, mukhammas, mysticism.

Millatimiz ta'rixiga nazar tashlar ekanmiz, ming yillar davomida xalqimiz qon qoniga singib ketgan Islom dinining qadriyatları, ahkomlari o'z o'zidan adabiyotimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qarib ming yillar davomida xalqimiz muqaddas kitobimiz bo'l mish Qur'oni karim va hadisi sharifga tayangan holda yashab kelganlar. E'tiborli jihat shundaki, ko'p xollarda yetuk din ulamolari bir vaqtning o'zida shoir, faylasuf, mutafakkir, hatto, ba'zi xollarda qomusiy olim kishilar bo'lishgan, yetuk shoirlar esa dinni puxta bilgan, yoshligidan Quroni karimni yod olgan murattab qori bo'lgan, shariat ahkomlarini o'zlashtirgan kishilar bo'lishgan. Bunday ulug siymolarga Abu Nasr Farobi, Al- Xorazmiy Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Asrlar davomida din va adabiyot birlashib, dinning yetuk falsafasi bilan adabiyotning nodir so'z sanati vujudga keldi. Natijada islam diyorida ko'plab mutasavvuf shoirlar yetishib chiqdilar. Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo ham anashunday shoirlardan biri bo'lgan.¹

Huvaydo she'rlerida axloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat va tarbiya masalalari alohida o'ren tutadi: shoir halollik, poklik, rostgo'ylik, taqvodorlik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, yetim-yesir, kambag'al-miskinlarga shafqatli bo'lish, xayru saxovatli bo'lish kabi eng oli-janob insoniy fazilatlarni targib qildi va tarannum etdi. Nopoklik, maishiy buzuqlik, kazzoblik, firibgarlik, o'g'rilik, birovning haqiga xiyonat qilishi, tilyoglamalik, riyokorlik, laganbardorlik, ayniqsa, kibru havo, mutakab- birlik, zinokorlik singari jirkanch illatlarni qattiq qoraladi. Huvaydo inson hayotidagi ijobjiy va salbiy xu-susiyatlar haqida yozar ekan, ularning oqibatini ko'rsa-tish uchun Qur'on va hadislardan dalillar keltiradi.²

¹ Xolmurodov.I. OTASHNAFAS SHOIR HUVAYDO HAYOT YO'LIGA BIR NAZAR maqolasi. "Экономика и социум" №12(91)-1 2021

² Qodirqul Ruzmatzoda. Huvaydo Devoniga so'z boshidan.Toshkent.-2007.

Huvaydo mumtoz she'riyat ustasi sifatida namoyon bo'ldi. Huvaydo g'azaliyoti, asosan, oshiqona, orifona g'azallardan tashkil topgan. Oshiqona g'azallarda ishqil komil yo'lida insoniy kamolat sari sabot bilan intiluvchi oshiq kechinmalari va qiyofasi ta'sirchan tasvirlangan. Orifona g'azallarda esa Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida gavdalanadi. Uning didaktik qarashlari asrlar osha o'lmas mavzularga aylanib qolmoqda. Huvaydoning ijodiy faoliyati g'oyaviy-badiiy jihatdan nihoyatda keng qamrovli va umumbashariyligi bilan ham ajralib turadi: uning asarlaridan osiy va gumroh ham, orif va oshiqlar ham, fozil va komil insonlar ham, turli maqom va saviyadagi shoh-u gadolar ham bahra olishi va o'zlarini qiyagan muammolarga javob olishlari, o'z ichki olamini kuzatishlari mumkin edi. Uning ijodida hayot va o'lim masalalari, insoniy hayotning ma'nosi, o'zlikni anglash masalalari yetakchi o'rinnegallaydi. Bu esa shoirning o'ziga xos yo'li, uslubi borligini, teran va falsafiy fikrlash doirasining kengligini ko'rsatadi.³

Bu maqolada Huvaydoning "Kuyub ishq o'tida, ey do'stlar, bag'ri kabob o'ttum" deb boshlanuvchi g'azalini tahlilini ko'rib o'tamiz. G'azalni tahlil qilishdan avval ba'zi so'zlarning ma'nosi bilan tanishib o'tsak. Giribon - yoqa, darig'o - attang, shitob - shoshilmoq, barq - yashin, chaqmoq, turob – tuproq.⁴ Birinchi misra bilan tanishamiz:

Kuyub ishq o'tida, ey do'stlar, bag'ri kabob o'ttum,
Ko'zum qoni bilo guldek giribonim bo'yab o'ttum.⁵

Bu baytda shoir do'stlariga murojaat qilib, ishq sababli bag'ri kabob bo'lganini takidlaydi. Bu yerda bag'rni kabobga o'xshatish orqali qanchali azob, iztirob chekayotganini ifodalaydi. Lekin, bilamizki kabob qancha yaxshi pishirilsa u yanada mazali bo'ladi, ishq ham shunday, oshiq qancha azob cheksa yoriga bo'lgan muhabbat yanada kuchli bo'ladi. Baytda nido, tajnis she'riy san'atidan foydalangan. Nido boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli

³ Zaripova. D. HUVAYDO IJODIDA ADABIY TA'SIR maqolasi. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2023/11 (105)

⁴ Huvaydo.Devon.Yangi asr avlod. Toshkent.2007

⁵ Huvaydo.Devon.Yangi asr avlod. Toshkent.2007

tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg‘ulari po‘rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagи har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin. Shoir ham anashu tuyg‘ularini “ey do’stlar” orqali ifodalagan. Bag’ir, ko’z, giribon so’zлari esa tajnis san’atini vujudga keltirgan.

Qalandar bo‘ldumu kezdim bu dunyo mulkini yaksar,

Bu dardimni davosini yurub eldin so‘rob o‘ttum.[1.162]

Inson qachon qalandar holiga tushishi mumkin? Lirik qahramon edi qalandarlikka o’tti, bu dunyoni mulkini yolg’iz aylanib o’tmoqda va shu holida uning qalbiga azob berayotgan dard, ishq dardiga, atrofidagi barchadan davo so’rab boraverdi. Bu baytda “dard” va “davo” so’zлari orqali tazod she’riy san’atini vujudga kelgan.

Hama ayturki, ey nodon, bu dardingni davosi yo‘q,

Ilojim topmadim, yig‘lab, yuzumni tirmalob o‘ttum. [1.62]

Oshiq qalandar holida el aro kezib o’tarkan, ko’rgan insonlaridan dardiga davo istab turgan bir paytda, el ahli uning dardiga davo yo’qligini aytishadi, bundan hasratga tushgan oshiq, endi dardan yig‘lab, yuzlarini timdalashga o’tti. Lekin bu timdalash qalbidagi timdalanishlar oldida hech narsa emas edi.

Darig‘o, sad darig‘o, ko‘rmadim osoyishi umrim,

Samandi g‘amga mindim, barqdek aylab shitob o‘ttum. [1.162]

Endi lirik qahramonning holati azob chekishdan isyon qilshga o’tadi. 1-misrada “darig‘o”(attang) so’zini ikki marta qaytarish orqali, afsusni yuqoriligini ko’rsatmoqda, bunda nafaqat ishq dardi umri ham osoyishta tinch o’tmaganidan isyon qilmoqda lirik qahramon. Saman oti uchar otligi bilan barchamizga ayon, lekin bu uchar otga g’am ila minsа, insonni g’ami balki unutilar, yoki unutishga harakat qiladi. Buni misra so’ngidagi yashindek o’tib ketishni takidlash orqali ham anglashimiz mumkin.

San, ey miskin Huvaydo, ushbu umrungni g‘animat bil,

Yumub ko‘z ochqucha qolmay, bo‘lib oxir turob o‘ttum.[1.162]

G'azali so'ngida lirik qahramon isyon qilishdan to'xtab, itoat qilishni boshlaydi va o'ziga murojaat qiladi, o'zini miskindek tasvirlab, umrini behuda sarflamaslikni, uni qadriga yetishni, ko'z ochib yumguncha bu umr tugashini, borari oddiy tuproq bo'lishini takidlaydi.

Hulosa qilib aytganda Huvaydo turli janrlarda qalam tebratar ekan, har bir janrda o'zining badiiy mahoratini namoyon eta olgan. She'riy shakllarning yangi imkoniyatlarini kashf qilishga intilgan.

Uning g'azallari, mustazodlari, musaddas-u muxammaslari o'quvchida zavq-shavq uyg'otadi, oliv insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu bois olima Suyuma G'aniyeva: "Shoir ishqiga majoziy hayotda ham, ishqiga haqiqiy hayotda ham ajib ehtiros bilan, najib dardmandlik bilan qalam tebratadi. Shoir she'riyatida didaktik ohanglar ham yetakchi o'rinni tutadi. Lekin ular quruq shunchaki pand-u nasihatlar emas, ularning asosida g'amdan, nochorlikdan yaralgan donolikni uqamiz. Shoirning qator g'azallarida isyonkorona ruh shu qadar yolqinligi, beixtiyor otash haroratini his etamiz. Tasavvufiy g'azallarda esa e'tiqodda ustuvorlik, iymonda poklik tarannum qilinadi, ruhiyatni Haq sari izchil yo'naltirishga da'vat etiladi"⁶- deb yozgan edi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Huvaydo.Devon.Yangi asr avlodi.Toshkent.2007
2. Xolmurodov.I. OTASHNAFAS SHOIR HUVAYDO HAYOT YO'LIGA BIR NAZAR maqolasi. "Экономика и социум" №12(91)-1 2021
3. Хувайдо,. Кўнгил дарди. Тошкент: MERIYUS. 2009.
4. Qodirqul Ruzmatzoda. Xojamazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari.Zilol buloq.Toshkent. 2019
- 5.Zaripova.D. HUVAYDO IJODIDA ADABIY TA'SIR maqolasi. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2023/11(105)

⁶ Хувайдо,Кўнгил дарди. Тошкент: MERIYUS. 2009.